

---

## JARAYON



Qo'shtepa tumanida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida "Ayollar daftari"ning to'rtinchi bosqichini shakllantirish jarayonining yakuniy ishlari amalga oshirilmoqda.

Tuman hokimligida "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimining 4-bosqichini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tuman shtabi boshlig'i I.Novikov raisligida shtabning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda mahallalarda o'tkazilgan xatlovlar natijalari va "Ayollar daftari"ga kiritiladigan xotin-qizlarning ro'yxatlarini kiritish holati taxlil qilindi.

Shuningdek, yig'ilish davomida tuman hokimi xar bir ijtimoiy ko'makka muhtoj ayollarning muammolarini o'rganish, avvalo ayollarning bandligini ta'minlash, doimiy ishga joylashtirish, tadbirkorlikka yo'naltirish, kasanachilik, dexqonchilik va o'zini o'zi band etish orqali ularning muaamolarini xal etish zarurligini takidlab o'tdi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-02-23 08:01:08